



## ADOLAT HAQIDAGI FALSAFIY TA'LIMOTLARNING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

*Qo'qon Universiteti Ta'lim  
fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi  
4-kurs talabasi Murotaliyeva Dilafro'z  
@murotaliyevadili@gmail.com +998949963999*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada adolatning ijtimoiy munosabatlarda tutgan o'rni yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy adolat g'oyasining tarixiy va falsafiy shakllanishini, shuningdek, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ilmiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda ijtimoiy adolat tushunchasi qadimiy Sharq va G'arb mutafakkirlari asarlarida qanday talqin etilgani, uning ma'naviy, axloqiy va huquqiy asoslari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy adolat g'oyasining zamonaviy O'zbekiston jamiyatidagi yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotiga ta'siri ham o'rganiladi. Tadqiqotda tarixiy-falsafiy tahlil usuli, solishtirma-tahliliy yondashuv, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar natijalari qo'llanilgan.

**Kalit so'zlar:** adolat, jamiyat, hukmdor, davlat, tengsizlik, ijtimoiy tabaqa.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль справедливости в социальных отношениях. Цель исследования – научный анализ историко-философского формирования идеи социальной справедливости, а также её значения в развитии общества. В работе исследуется, как концепция социальной справедливости интерпретировалась в трудах древних восточных и западных мыслителей, её духовные, моральные и правовые основы. Одновременно изучается влияние идеи социальной справедливости на духовно-нравственное развитие молодёжи в современном узбекском обществе. В исследовании используются методы историко-философского анализа, сравнительно-аналитический подход, а также результаты современных социально-психологических исследований.



**Ключевые слова:** справедливость, общество, правитель, государство, неравенство, социальный класс.

**Abstract:** This article discusses the role of justice in social relations. The purpose of the study is to scientifically analyze the historical and philosophical formation of the idea of social justice, as well as its significance in the development of society. The study examines how the concept of social justice was interpreted in the works of ancient Eastern and Western thinkers, its spiritual, moral and legal foundations. At the same time, the impact of the idea of social justice on the spiritual and moral development of young people in modern Uzbek society is also studied. The study uses the method of historical philosophical analysis, a comparative analytical approach, as well as the results of modern social psychological research.

**Keywords:** justice, society, ruler, state, inequality, social class.

Jamiyat hayotida adolat nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina jamiyatlar boylik va hokimiyatga ega bo'lgan guruhlar va ana o'shalardan mahrum guruhlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Taraqqiyot jarayonida har bir jamiyat jamiyatdagi guruhlarning qat'iy iyerarxiasini o'rnatadi. Bu iyerarxiya tengsizlikka olib keldi. Jamiyatni bir-biriga qarama qarshi qatlamlar vujudga keladi. Bunday sharoitda insoniyat uchun eng muhim bo'lgan adolat g'oyasi tengsizlikka barham berishi kerak edi. Adolat-jamiyat hayotidagi hodisalar, tartib-qoidalarning asl insoniy qoidalarga, haqiqat mezonlariga qanchalik mos ekanini aniqlashda hamma zamonlarda ham asosiy ma'naviy mezon bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatning shaxsga, shaxsning jamiyatga va bir shaxsning ikkinchi shaxsga munosabatida namoyon bo'ladigan adolat tamoyili ana shu munosabatlarni baholashning o'zgarmas mezonidir. Adolat — ijtimoiy-falsafiy, axloqiy hamda huquqiy tushuncha. Kishilar ijtimoiy-siyosiy ongida katta rol o'ynaydi. Muayyan ijtimoiy guruhlar va ayrim shaxslarning tushunchalarini o'zida aks ettiradi. Siyosiy xatti-harakatlar, huquq va burch me'yorlari, axloqiy munosabatlar, mehnat va taqdirlanish, jinoyat va jazo, xizmat va uni tan olish, qadr-qimmatni e'tirof qilish va hokazoga mazkur tushuncha orqali baho beriladi. Adolat (arab. odillik, to'g'rilik, hamma uchun barobar bo'lgan haqiqatning talab va tamoyillariga amal qilishi) –



insoniyatning azaliy orzusi, ezgu g'oyasi, ma'naviyat, axloq va huquqning me'yoriy kategoriyalaridan biri. Jamiyat hayotidagi hodisalar, tartib-qoidalarining asl insoniy ideallarga, haqiqat mezonlariga qanchalik mos ekanini aniqlashda hamma zamonlarda ham asosiy ma'naviy mezon bo'lib xizmat qilgan. Adolat – bu tenglik, haqiqat va haqqoniylik asosida qarorlar qabul qilish va xatti-harakatlar amalga oshirish tushunchasidir. Adolat insonlar o'rtasidagi munosabatlarda xolis bo'lish, hech kimni kamsitmaslik va har bir insonning haqlarini hurmat qilishni taqozo etadi.

Adolat - muayyan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning ijtimoiy-falsafiy jihati jamiyat a'zolarining xilma-xil munosabatlaridagi o'zaro tengligini nazarda tutadi. Axloqiy jihati insonlarga muomalada bir xil munosabatda bo'lishni, bir-birining izzat-nafsiga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga amal qilishni bildiradi. Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidalari asosida boshqarishni, fuqarolar g'amini yeyishni anglatadi. Rivojlangan jamiyatda adolat kishilarning demokratik qonunlar asosida ish yuritishini taqozo etadi, unda har bir odam o'z mehnati, tadbirkorligi, aql-zakovati tufayli topgan mol-mulki hisobiga yashaydi. Davlat o'z faoliyatida fuqarolar tomonidan adolat qoidalari va qonunlarga amal qilinishini nazorat etadi, jamiyat a'zolarining mol-mulki daxlsizligi va qonun oldida tengligini ta'minlaydi. Adolat yuksak ma'naviy qadriyat bo'lib, baxt, ozodlik, tenglik, do'stlik, tinchlik tushunchalari kabi insonning azaliy ezgu intilishlarining timsolidir. Adolat haqidagi ilk tasavvurlar juda olis zamonlarga borib bog'lanadi. Qadimgi davr mutafakkirlari uni universal qonun sifatida talqin etgan. Masalan, Zardusht adolatni "arta" tushunchasi yordamida ifoda etar ekan, uni olamdagi ikki qutbdan biri deb hisoblaydi. Yunon faylasufi Aflotun adolat muammosini tizimli tarzida o'rganib chiqishga harakat qilgan. Uning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasida adolat hukmronlik va imtiyoz tushunchalariga yaqin kategoriya sifatida sharhlangan. Faylasufning fikricha, har bir tabaqa ichida tenglik bo'lmog'i, tabaqalar o'rtasida tenglik hukm surmog'i adolatdandir. Arastu bu g'oyalarni rivojlantirib, "tenglashtirish" va "taqsimlash adolati" degan tushunchalarni qo'llagan. Abu Nasr Forobiy adolatni ijtimoiy iyerarxiya va tartibning mavjud bo'lishi uchun poydevor



yaratuvchi huquqiy kategoriya deb ta'riflagan. XVIII asrga kelib adolat ijtimoiy tenglik bilan bog'liq holda kun tartibiga qo'yila boshlandi. Hozirgi zamon falsafiy adabiyotlarida adolat jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni ifoda etuvchi kategoriya sifatida ta'riflanmoqda. Platonning fikricha, adolat g'oyasi har bir odamning jamiyatda tutgan o'rni (sotsial statusi)ga muvofiq o'z vazifalarini qat'iy bajarishdan iborat. Mavjud tuzumning barcha qonun-qoidalariga rioya qilmoqlikning o'zi adolatdir: har bir ijtimoiy tabaqaga mansub kishilar (a'yonlar , a'yonlarcha , qullar , qullargacha ) faqat o'zlarining vazifalarini bajarishlari kerak. Mavjud qonun-qoidalarni buzishga yoki o'zgartirishga qaratilgan har qanday xatti-harakat adolatsizlik hisoblanadi. Demak, Platon fikricha adolat har bir kishining jamiyat hayotidagi o'rnini belgilab beruvchi tamoyil sifatida jamiyatning yaxlitligini ta'minlovchi va uni mustahkamlovchi omil sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, xususan , "Yangi O'zbekiston – adolatli davlat " g'oyasining ilgari surilishi mazkur mavzuni ilmiy jihatdan tahlil qilish zaruratini tug'diradi. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash , sud-huquq tizimini takomillashtirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish bevosita adolat haqidagi falsafiy ta'limotlarga tayanadi. Adolatning genezisini o'rganish bizga nafaqat o'tish merosini anglash, balki kelajakdagi adolatli jamiyat modelini barpo etishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adolat muammosi falsafa tarixi davomida eng ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'lgan mavzulardan biridir. Antik davrda Platon (Aflotun) adolatni "davlatning eng oliy fazilati" deb ta'riflagan bo'lsa, Aristotel uni "distributiv" (taqsimlovchi) va "kommutativ" (tuzatuvchi) turlarga ajratgan holda tizimlashtirdi. O'rta asrlar Sharq falsafasida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Nizomulmulk va Alisher Navoiy asarlarida adolat — komil inson va fozil jamiyatning bosh mezoni sifatida talqin etilgan. Yangi davr falsafasida T. Gobbs, J. Lokk va J. J. Russo adolatni "ijtimoiy shartnoma" doirasida ko'rib chiqdilar. Immanuel Kant esa adolatning axloqiy va huquqiy chegaralarini belgilab berdi. XX asrda Jon Roulz o'zining "Adolat nazariyasi" asari bilan zamonaviy liberal adolat konsepsiyasini shakllantirdi.



Shuningdek, mahalliy olimlarimizdan I. Mo‘minov, M. Xayrullayev kabi faylasuflar Sharq mutafakkirlarining adolat haqidagi qarashlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishgan. Biroq, adolatning tarixiy genezisini Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti prizmasida yaxlit tizim sifatida tahlil qilish hali ham keng qamrovli tadqiqotlarni talab etadi.

Adolat tushunchasi nafaqat huquqiy, balki ekzistensial kategoriya sifatida, insonning erkinligi va mas’uliyati bilan bog‘liq holda tahlil qilindi. Sharq va G‘arb falsafasidagi adolat talqinlarining o‘zaro yaqinligi va farqli jihatlari yangi manbalar asosida tizimlashtirildi. Jon Roulzning adolat nazariyasi va uning bugungi "ijtimoiy davlat" konsepsiyasiga ta’siri falsafiy jihatdan asoslab berildi. Ishning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan oliy o‘quv yurtlarida "Falsafa", "Huquq falsafasi", "Siyosatshunoslik" va "Ma’naviyat asoslari" fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkin. Shuningdek, yoshlarda adolatli dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarida nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adolatning ijtimoiy-falsafiy jhati jamiyat a'zolarining xilma- xil munosabatlaridagi o'zaro tengligini nazarda tutadi. Axloqiy jhati shaxslararo muomalada bir xil munosadatda bo'lishni bir-birining izzat nafsiga tegmaslikni axloq-odob qoidalariga amal qilishni bildiradi. Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidalari asosida boshqarishni fuqarolar g'omini yeyishni anglatadi. Rivojlangan jamiyatda adolat kishilarning demokratik qonunlar asosida ish yuritishini taqozo etadi, unda har bir odam o'z mehnati, tadbirkorligi, aql-zakovati tufayli topgan mol-mulkini hisobiga yashaydi. Davlat o'z faoliyati davomida fuqarolar tomonidan adolat qoidalari va qonunlarga amal qilishini nazorat etadi, jamiyat a'zolarining mol-mulki daxlsizligi qonun oldida tengligini ta'minlaydi. Navoiy adolat g'oyasini chuqur insoniylik mazmunida talqin qiladi. Uning fikricha, hukmdorlar faoliyatining mezoni- adolat, ularning ma'naviy qiyofasining belgisi insoniylikdan iborat. Mamlakatni idora etuvchilarga avf, karam , javonmardlik fazilatlarini ham xos bo'lmog'i lozim. Shunday fazilatlariga ega bo'lgan shoh bilan raiyat(xalq) o'rtasida uzviy ravishda aloqa tiklanadi. Oliyjanob va himmatli shohga nisabatan xalqda vahima va qo'rqinch bo'lmaydi. Shu tufayli shoh o'z mamlakatidagi yaxshi ishlardan ham yomon



ishlardan Shahki ishi adl ila bunyod etar, Adl buzuq mulkni obod etar. Kofiri odil ani obod etib, Mo‘mini zolim ani barbod etib. Shahki, erur adl ila davron anga, Bo‘ldi sirot o‘tmagi oson anga. (Xamsa „Hayrat ul-abror“) Haqiqatdan ham hukmdor muhim xavlat ishlarini o‘z atrofidagi davlat arboblari bilan maslahatlashib hal qilishi maslahatchilar ham donishmand va adolatli kishilar bo‘lishi, hukmdor ularning maslahatlariga quloq solishi va ular bilan hisoblashishi kerak. Chunki ko‘pchilikning aqli bir kishining aqlidan ortiqroq. U qanday masalani hal qilmasin eng avval o‘zini fuqaro o‘rnida ularni esa o‘z o‘nida tasavvur qilishi kerak. Bu esa adolatni ta‘minlaydi. Adolat tamoyilini Arastu asarlarida juda keng tarzda tahlil etilganligini bilamiz. Arastu adolatni– birgina insonga emas, balki, barchani qamrab oluvchi fazilat sifatida talqin etgan. Adolat kategoriyasini buyuk Xitoy mutafakkiri Konfutsiy, Yunon olimlari Suqrot, Aflotun, sitseron va boshqa juda chuqur o‘rganganlar. Konfutsiyning nazarida “O‘zingga ravo ko‘rmaganni o‘zgaga ham ravo ko‘rma” munosabatlarning adolatli bo‘lishini asosidir. Demokrit o‘zining “Buyuk diakosmos” va “Kichik diakosmos” asarlarida “Adolat– bu burchni bajarishdir”, - deb izohlaydi. Suqrot: “...qonuniylik – bu adolatlilikdir”, - deya sharhlaydi.

Adolat haqidagi falsafiy ta‘limotlar tarixiy genezisi qadimgi dunyodan boshlanib, axloqiy, huquqiy va ijtimoiy tenglik tamoyillarini qamrab oladi. Antik davrda (Platon, Aristotel) adolat "oliy ezgulik" va "taqsimot mezoni" sifatida qaralsa, o‘rta asrlarda diniy-axloqiy, Yangi davrda esa huquqiy va shartnomaviy nazariyalar (liberalizm) sifatida rivojlandi.

Adolat tushunchasi insoniyat tarixi davomida ijtimoiy, huquqiy va axloqiy taraqqiyotning negizi sifatida rivojlanib kelgan. Uning tarixiy genezisi va rivojlanish bosqichlari ibtidoiy jamoa tuzumidan tortib to hozirgi zamon huquqiy davlatchilik tizimigacha bo‘lgan murakkab jarayonni qamrab oladi.

Adolat —insoniyat tarixida eng qadimiy, eng muhim va eng murakkab falsafiy tushunchalardan biridir. U har qanday jamiyatning ma‘naviy, huquqiy va siyosiy hayotida markaziy o‘rinni egallaydi. Adolat tushunchasi insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u insonlar o‘rtasidagi tenglik, huquqiy barqarorlik va ijtimoiy



uyg'unlikni ta'minlovchi asosiy qadriyatdir. Adolat g'oyasi inson tafakkurida qadim zamonlardan buyon mavjud. U dastlab axloqiy mezon sifatida shakllanib, keyinchalik davlat boshqaruvi, qonunchilik, iqtisodiy siyosat va ijtimoiy tuzilmalarning poydevoriga aylandi. Qadimgi Yunoniston faylasuflari — Aflotun, Aristotel, keyinchalik Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy singari mutafakkirlar adolatni jamiyat taraqqiyotining eng oliy maqsadi sifatida talqin qilganlar. Ularning fikricha, adolat —bu insonning o'z o'rnini topishi, jamiyatda har bir a'zoning haqqi o'ziga yarasha ta'minlanishidir. Zamonaviy davrda adolat tushunchasi faqat axloqiy yoki huquqiy masala bo'lib qolmay, balki ijtimoiy siyosat, iqtisodiy barqarorlik va inson huquqlarini himoya qilishning ham asosiy mezoniga aylangan. Ayniqsa, globalizatsiya, raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy tafovutlarning kuchayishi sharoitida adolat masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Adolat bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy tenglik esa adolatning amaliy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Insonlar o'rtasidagi teng huquqlilik, imkoniyatlar barobarligi va mehnat natijalarining adolatli taqsimlanishi jamiyatning axloqiy poydevorini mustahkamlaydi. Tenglikni ta'minlash —bu nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy zaruratdir. Chunki teng imkoniyatlar mavjud bo'lmagan jamiyatda adolatni qaror toptirish mushkul. Shu bois, adolat va ijtimoiy tenglik tushunchalarini birgalikda o'rganish jamiyatdagi barqarorlik, taraqqiyot va insoniy qadriyatlarni anglashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada adolat tushunchasining falsafiy mohiyati, uning tarixiy shakllanishi, ijtimoiy tenglik bilan o'zaro bog'liqligi hamda zamonaviy jamiyatda bu tushunchalarning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Adabiyotlar sharhi Adolat va ijtimoiy tenglik masalalari insoniyat tafakkuri tarixida eng qadimiy va dolzarb falsafiy tushunchalardan biri sanaladi. Qadimgi yunon faylasuflari Platon va Arastu adolatni jamiyatni boshqarishdagi asosiy me'yor sifatida talqin etganlar.

Platon "Davlat" asarida adolatni har bir insonning o'z vazifasini halol va to'g'ri bajarishi bilan bog'laydi, Arastu esa adolatni tenglik tamoyiliga asoslangan ijtimoiy muvozanat sifatida tushuntiradi (Arastu, 1983). Yangi davr falsafasida Jon Lokk, Jan-Jak Russo va I. Kant kabi mutafakkirlar adolatni inson huquqlari va



erkinliklari bilan uzviy bog‘liq tushuncha sifatida qaraganlar. Kant fikricha, adolat – bu axloqiy qonuniyatga asoslangan erkinlikni kafolatlovchi prinsipdir. Jon Rols (1971) o‘zining “Adolat nazariyasi” asarida adolatni “teng imkoniyatlar” va “farqlar printsiplari” asosida tahlil qilib, ijtimoiy institutlar adolatli bo‘lishi uchun eng kam imkoniyatga ega qatlam manfaatlarini ham hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. O‘zbekistonda ham adolat va ijtimoiy tenglik masalasi mustaqillik yillarida chuqur falsafiy, ijtimoiy va huquqiy tahlil markazida bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o‘z nutqlarida “Adolat –bu eng oliy mezon” degan g‘oyani ilgari surib, jamiyatdagi barcha islohotlar aynan adolat tamoyiliga asoslanishi kerakligini qayd etadi (Mirziyoyev, 2020). Shu ma’noda, ijtimoiy tenglik davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Mahalliy olimlar –S. Qosimov, M. Jo‘rayev, N. Komilov kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida adolatni nafaqat huquqiy, balki axloqiy va ijtimoiy qadriyat sifatida tahlil qiladilar. Ularning fikricha, adolat ijtimoiy tizimda inson sha’nini e’tirof etish, imkoniyatlar tengligini ta’minlash, resurslarni oqilona taqsimlash va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash orqali namoyon bo‘ladi (Qosimov, 2018). Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, adolat hissi jamiyatda ishonch, barqarorlik va farovonlikni shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Masalan, Amartya Sen (2009) “Adolat g‘oyasi” asarida adolatni faqat qonunlar yoki institutlar orqali emas, balki amaliy tenglik, imkoniyatlar adolati va ijtimoiy ishtirok orqali baholash zarurligini ta’kidlaydi.

Zamonaviy fuqarolik jamiyatida insonni inson qiladigan ijtimoiy adolat asosi – ta’lim, tibbiy xizmat, uyjoy, mehnat kabi ne’matlardan hamma uchun erkin foydalanish imkoniyatining mavjudligidir. Inson doimo jamiyat hayotida muhim o‘ringa ega bo‘lishga intilib yashaydi, bu – uning asosiy ehtiyojlaridan biri. Fuqaroning huquq va burchlarining mosligi ham fuqarolik jamiyatidagi adolatli munosabatlarni aniq izga soluvchi omildir. Bundan nafaqat jamiyat, balki shaxsning o‘zi ham katta manfaat ko‘radi. Ana shu moslik tufayligina inson boshqalardan hurmat va e’tirof kutishga haqli. Jinoyatga yarasha jazo tizimi bo‘lmagan sharoitda har qanday jamiyat taraqqiyot borasida qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Agar



jinoyatni jazosiz qoldirmaydigan tizim ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish kuchiga ega bo'lsa, mehnat va uning baholanishi o'rtasidagi moslik – iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi. Bugungi zamonaviy jamiyatni ana shunday moslik qoidasisiz tasavvur etish mushkul. Bu moslik butun iqtisodiy tizimning poydevorini tashkil etadi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki adolat jamiyat hayotining ajralmas bo'lagidir. Ijtimoiy adolat insoniyat tarixidagi eng qadimiy va eng dolzarb falsafiy masalalardan biridir. U shunchaki tenglik emas, balki jamiyatda har bir shaxsning qadr-qimmatini tan olish, imkoniyatlarni adolatli taqsimlash va tizimlarni odilona boshqarish demakdir. Falsafiy jihatdan, adolatning Rawls, Honneth, Fraser, Young kabi olimlar ishlab chiqqan nazariyalari zamonaviy siyosat va boshqaruv amaliyotida o'z aksini topmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy adolatni ta'minlash faqat moddiy resurslarni qayta taqsimlash emas, balki adolatli institutlar, shaffof boshqaruv, inklyuziv siyosat va fuqarolik ishonchini mustahkamlash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, ijtimoiy adolatni baholash uchun Gini koeffitsienti, adolat indeksi va inklyuziya darajasi kabi ko'rsatkichlar global me'yorga aylanmoqda.

Kelajakda esa ijtimoiy adolat tushunchasi yangi texnologiyalar, sun'iy intellekt, ekologik mas'uliyat va raqamli tenglik kabi yo'nalishlarda yangi falsafiy asos va amaliy mexanizmlar talab etadi. Shu bois, ijtimoiy adolatni chuqur falsafiy tahlil qilish va uni zamonaviy siyosiy strategiyalarga tatbiq etish global taraqqiyotning muhim omili bo'lib qoladi. Adolat va ijtimoiy tenglik tushunchalari insoniyat taraqqiyotining asosi, har bir jamiyatning barqaror rivojlanishiga yo'naltirilgan eng muhim falsafiy va ijtimoiy qadriyatdir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, adolat –bu nafaqat huquqiy kategoriya, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini uyg'unlashtiruvchi axloqiy tamoyildir. Adolat mavjud bo'lmagan jamiyatda tenglik, birdamlik va taraqqiyot haqida gapirish mushkul. Ijtimoiy tenglik esa insonlar o'rtasida imkoniyatlar, resurslar va huquqlarning adolatli taqsimlanishini ta'minlaydi. Bu tushuncha iqtisodiy, siyosiy, ta'limiy va madaniy sohalarda o'z ifodasini topadi. Tenglikning mavjudligi jamiyatda ishonch, o'zaro hurmat va ijtimoiy totuvlikni mustahkamlaydi.



O‘zbekiston misolida ko‘rish mumkinki, adolat va ijtimoiy tenglik g‘oyalari davlat siyosatining markazida turibdi. So‘nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, yoshlar va ayollar manfaatlarini himoyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar aynan shu tamoyillarga asoslanadi. Bu esa “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasining amaliy mazmunini tashkil etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Qozoqov „Shaxs va jamiyat " o'quv qo'llanma Namangan 2017
2. Abu Nasr Forobiy „Fozil odamlar shahri" Toshkent „Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993
3. Mualliflar jamoasi, „Yangi O'zbekiston: innovatsiya fan va ta'lim" Toshkent 2023
4. United Nations. Social Justice in an Open World: The Role of the United Nations. New York, 2006. 2. Rawls J. A Theory of Justice. Harvard University Press, 1971.
5. Aristotle. Nicomachean Ethics. Trans. by W.D. Ross. Oxford University Press, 1980.
6. Honneth A. “Recognition and Justice: Outline of a Plural Theory of Justice.” Acta Sociologica, 2004.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017 .- 426 b.
8. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2004. – 496 bet.
9. Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 760 bet.
10. Jumayev G.I., Doniyorov A.X., va boshq. History of the study of “Temur tuzuklari” (Temur’s regulations or Temur’s laws). // New York Academic Research Congress On Social, Humanities, Administrative, And Educational Sciences Proceedings Book, – Turkiye. 2024, – S 972-975.
11. Исҳоқов М.М., Жумаев Ғ. И. «Ҳабиб ус-сияр» ва «Матла уссаъдайн» асарларида дипломатик ва элчилик муносабатларнинг акс эттирилиши. // Sharqshunoslik / Во с т о к о в е д е н и е / Oriental studies 2022, № 1. – Тошкент, – Б 120-132.